




Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

2021- yilning yanvar- dekabr oylarida 16 309,1 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 93,4 %ni tashkil etdi.

Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 5,8 %ni tashkil etib, 951,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 15 357,4 mlrd. so'm yoki jami investitsiyalarning 94,2 % investitsiyalari o'zlashtirilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 112,7 %ni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar



Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar tarkibi, ulushi %da

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da



Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar tarkibi, ulishi %da

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da



2021- yilning yanvar-dekabr oylarida korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 2 642,3 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 16,2 %ini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 9,0 %i yoki 1 467,8 mlrd. so'mi o'zlashtirildi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 2 057,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 110,8 %ni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi, mlrd. so'm



Shuningdek, tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 1 585,1 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 9,7 %ini), O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 157,3 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 1,0 %ini), Respublika budjeti 649,5 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 4,0 %ini), Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi 77,3 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 0,5 %ini) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atlarini moliyalastirish manbalari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag'larida kuzatilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 398,8 %ga, Respublika budjeti tomonidan esa 198,4 %ga o'sdi.

*Shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan investitsiyalar o'tgan yilning mos davriga nisbatan 244,6 %ni tashkil etib, **"Zarafshon Industry Tehnology" MChJ qo'shma korxonasi** tomonidan buyoq moddalar ishlab chiqarishni tashkil etish va **"JV CONTINAZ" MChJ qo'shma korxonasi** tomonidan esa karbamid formaldegid konsentratini ishlab chiqarishni tashkil etish kabi yirik investitsiya loyihalarining jadal o'zlashtirilgani bilan bog'liq.*





















NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

	Jami asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd. so'm	shu jumladan, moliyalashtirish manbalari bo'yicha (jamiga nisbatan % da):						
		Respublika budjeti	Korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari	Aholining o'z mablag'lari	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	Bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi
Navoiy viloyati:	16 309,1	4,0	16,2	9,0	60,2	0,5	9,7	0,4
<i>shaharlar:</i>								
Navoiy sh.	3 939,8	8,4	32,9	6,0	43,1	0,3	8,9	0,4
Zarafshon sh.	1 652,6	2,2	4,9	3,7	87,2	0,6	1,4	
G'ozg'on sh.	68,8	27,7	16,0		44,3	12,0		
<i>Tumanlar:</i>								
Karmana	2 151,0	2,3	21,2	9,8	57,3	0,2	9,2	
Konimex	1 461,7	1,3	19,2	3,7	73,0	0,2	2,6	
Qiziltepa	633,4	7,6	26,9	26,5	10,3	0,7	28,0	
Navbahor	345,4	9,9	16,7	48,2	14,1	0,8	10,3	
Nurota	520,8	7,4	16,0	30,1	34,3	3,2	9,0	
Tomdi	4 074,6	0,4	1,4	0,2	97,8	0,1	0,1	
Uchquduq	225,6	6,9	29,2	14,6	40,7	0,8	7,8	
Xatirchi	1 235,4	3,7	6,5	30,3	2,4	1,1	56,0	

*Shahar va tumanlar tomonidan taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda

2021- yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

	<i>o'sish sur'ati</i>	<i>investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm</i>	<i>Navoiy viloyatidagi ulushi</i>
Navoiy shahar	77,2 % 	3 939,8 	24,2 % 
<i>Navoiy viloyatidagi ulushi</i>	<i>investitsiyalar hajmi, mlrd so'm</i>	<i>o'sish sur'ati</i>	Zarafshon shahar
10,1 % 	1 652,6 	91,2 % 	
G'ozg'on shahar	12,2 m 	68,8 	0,4 % 
<i>Navoiy viloyatidagi ulushi</i>	<i>investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati</i>	Karmana tumani
13,2 % 	2 151,0 	119,5 % 	
Konimex tumani	77,8 % 	1 461,7 	9,0 % 
<i>Navoiy viloyatidagi ulushi</i>	<i>investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati</i>	Qiziltepa tumani
3,9 % 	633,4 	109,1 % 	

Navbahor tumani

o'sish sur'ati

87,8 %




*investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm*

345,4



Navoiy viloyatidagi ulushi

2,1 %



Nurota tumani

o'sish sur'ati

138,9 %




*investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm*

520,8




Navoiy viloyatidagi ulushi

3,2 %



Navoiy viloyatidagi ulushi

25,0 %



*investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm*

4 074,6



o'sish sur'ati

132,1 %



Tomdi tumani

Uchquduq tumani

o'sish sur'ati

16,3 %




*investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm*

225,6



Navoiy viloyatidagi ulushi

1,4 %



Navoiy viloyatidagi ulushi

7,5 %



*investitsiyalar hajmi,
mlrd. so'm*

1 235,4




o'sish sur'ati

117,9 %



Xatirchi tumani

**2021- yil yanvar- dekabr oylarida
investitsiyalarning o'sish sur'atlari, %da**




Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilishi bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati 138,9 %ga o'sib, Nurota tumanida kuzatildi. Bu asosan "AZIA BAZALT" MChJ va "BESTERSTEIN GROUP" MCHJ: bazalt toshini qazib olishni tashkil etish va marmar, granit toshlarni qazib olish va qayta ishlashni tashkil etish bilan bog'liq.

Shuningdek, Tomdi tumanida ham yuqori o'sish sur'ati kuzatilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 132,1 %ni tashkil qildi. Bunday natijani "Edifice" XK tomonidan marmar, granit toshlarni qazib olish va qayta ishlashni tashkil etish va "ROAD ALLIANCE-PLYUS" MCHJ - Serabitum ishlab chiqarishni tashkil etish bilan izohlash mumkin.

Viloyatda investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ulushga ega bo'lgan Tomdi tumani (25,0 %), Navoiy shahri (24,2 %), hamda Karmana tumani (13,2 %) ushbu tuman va shaharlarda o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi viloyat bo'yicha jami investitsiyalar hajmi o'sish sur'atining oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

**Asosiy kapitalga investitsiyalarning
texnologik tarkibi, (%da)**



Navoiy viloyati bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida mashina, uskuna va inventarlarga 10 018,1 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 61,4 %ini tashkil etdi, qurilish montaj ishlari bo'yicha 5 847,2 mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 35,9 %) va boshqa xarajatlarga 443,8 mlrd. so'm (2,7 %) o'zlashtirildi.

Shahar tumanlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Navoiy shahrida kuzatildi – 33,4 % yoki 1 955,1 mlrd. so'm.

Qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng quyi daraja G'ozg'on shahrida kuzatilib, 0,6 %ni yoki 36,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shuningdek, Tomdi tumanida mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich kuzatilib – 34,7 % yoki 3 480,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Asosiy kapitalga
investitsiyalarning takror
ishlab chiqarish tarkibi
(jami hajmdagi % da)**

**Yangi qurilish-
65,9 %**

**Kengaytirish,
rekonstruksiya,
modernizatsiya - 25,9 %**

**Boshqa yo'nalishlar -
8,2 %**

Joriy hisobot davrida ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi yangi qurilishga yo'naltirildi. Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 10 751,6 mlrd. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 65,9 %ini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar 4 227,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va viloyatdagi jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 25,9 %ini tashkil etdi. Qolgan 8,2 % i, ya'ni 1 330,0 mlrd. so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida qayta ishlash sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 10 809,9 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 66,3 %i o'zlashtirilgan. Uning tarkibida eng ko'p investitsiyalar o'zlashtirilgan 3 ta faoliyat turlari quyidagilar:

- metallurgiya sanoati – 6 293,0 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 38,6 %).
- boshqa nometall mineral mahsulotlarini ishlab chiqarish – 1 938,2 mlrd. so'm.
- kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish – 1 360,6 mlrd. so'm.

**Shahar va tumanlar kesimida Asosiy kapitalga
investitsiyalarning texnologik tarkibi**

Jami hajmdagi ulushi %

	Qurilish montaj ishlari	Mashina, uskuna, inventarlar	Boshqa xarajatlar
<i>Navoiy viloyati</i>	35,9	61,4	2,7
shaharlar:			
<i>Navoiy</i>	49,6	46,7	3,7
<i>Zarafshon</i>	61,3	38,5	0,2
<i>G'ozg'on</i>	53,5	45,5	1,0
tumanlar:			
<i>Karmana</i>	25,4	70,1	4,5
<i>Konimex</i>	23,8	75,9	0,3
<i>Qiziltepa</i>	54,8	43,4	1,8
<i>Navbahor</i>	59,5	28,3	12,2
<i>Nurota</i>	53,6	27,3	19,1
<i>Tomdi</i>	13,8	85,4	0,8
<i>Uchquduq</i>	41,9	56,3	1,8
<i>Xatirchi</i>	37,3	62,4	0,3


***Xorijiy investitsiyalar o'zlashtirish, kreditlarni qo'shgan holda
(2021- yil yanvar-dekabr)***

	Jami to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirildi, mlrd. so'm		shundan: to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, mlrd. so'm	
	<i>jami</i>	<i>jamiga nisbatan, %da</i>	<i>jami</i>	<i>jamiga nisbatan, %da</i>
Navoiy viloyati	9 819,4	100,0	2 057,6	100,0
shaharlar:				
Navoiy	1 645,2	16,7	810,9	39,4
Zarafshon	1 441,1	14,7	-	-
G'ozg'on	30,5	0,3	30,5	1,5
tumanlar:				
Karmana	1 234,1	12,6	1 139,6	55,4
Konimex	1 065,8	10,9	32,6	1,6
Qiziltepa	65,6	0,7	15,2	0,7
Navbahor	49,2	0,5	-	-
Nurota	178,9	1,8	9,5	0,4
Tomdi	3 988,7	40,6	2,1	0,1
Uchquduq	91,6	0,9	15,7	0,8
Xatirchi	28,7	0,3	1,5	0,1


To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan joriy davrda 9 819,4 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida 157,3 mlrd. so'm xorijiy kreditlar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlarning o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 83,0 %ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi, %da



*Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan
Investitsiyalar hajmi, (ming soʻmda)*



Joriy davrda jami umumiy maydoni 817,6 ming kv.m boʻlgan 2807 ta yakka tartibdagi turar-joy obyektlari yangi qurib foydalanishga topshirilgan boʻlib, ulardan umumiy maydoni 594,5 ming kv.m boʻlgan 2069 ta uy-joylar qishloq joylarda joylashgan.



*Investitsiyalar va qurilish statistikasi
boʻlimi*

Aloqa telefoni: (79) 223-54-73
(71) 202-85-20